



2018 yil yanvar-sentabr oylarida 2597 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 635 taga ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar sanoat tarmog'ida (26,2%), savdo sohasida (24,5%), qurilish tarmog'ida, (13,7%), qishloq va o'rmon xo'jaligida (8,4%), yuklash va saqlash (6,6%), yashash va ovqatlanish xizmatlar ko'rsatish (4,8%) boshqa tarmoqlar (15,7%) ni tashkil etilgan.

**2018 yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy
faoliyat turlari bo'yicha ulushi**




**2018 yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlikning
1000 nafar aholiga to'g'ri keladigan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(birlikda)**



2018 yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Ulugnor (21,9 birlik), Andijon shahri,(18,4 birlik), Xodjaobod (15,5 birlik), va Bo`z (14,6 birlik) tumanlariga to'g'ri keladi. O'rtacha ko'rsatkich oralig'ida 10-13 birlik Marhamat Oltinko'l, Ko'rg'ontepa, Jalolquduq, Baliqchi, Asaka. Andijon (9,9 birlikda), Paxtaobod (9,6 birlikda), Buloqboshi (8,3 birlikda), Xonobod (8,3 birlikda) Izboskan (8,2 birlikda), va Shahrixon (8,0 birlikda) ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda. (rasm.2).


**Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentabr holatiga.**



2016 yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 7,3 birlikda bo'lib, 2017 yilda 12,4 birlikni tashkil etdi. 2018 yilda bu ko'rsatkich 12,0 birlikka yetdi. Bu esa, 2016 yil ko'rsatkichidan 4,7 birlik yuqori.

2018 yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 65,4 % ni tashkil qildi (2017 yilning yanvar-sentabr oylarida 72,0%). YaIM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.

**Kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushining pasayishi
dinamikasi yanvar-sentabr holatiga, %**



**2018 yil yanvar-sentabr kichik tadbirkorlikning
hududlar bo'yicha ulushi
(% da)**

	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>
Andijon viloyati	21,6	96,5	72,4
Andijon shahri	27,1	94,9	45,0
Honobod shahri	13,7	100,0	1,3
tumanlar:			
Andijon	81,1	100,0	5,8
Asaka	2,5	100,0	6,5
Baliqchi	83,2	100,0	4,7
Bo`z	75,7	100,0	1,1
Buloqboshi	100,0	100,0	2,9
Jalalquduq	57,3	76,0	3,7
Izboskan	63,1	100,0	4,6
Ulug'nor	56,0	69,2	0,9
Marxamat	78,5	100,0	3,4
Oltinko'l	92,1	100,0	3,5
Paxtaobod	99,9	100,0	3,9
Xo'jaobod	78,4	100,0	2,3
Shahrixon	92,7	100,0	6,2
Qo`rg'ontepa	69,4	96,3	4,4

Hududlar bo'yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Buloqboshi (100,0 %), Paxtaobod (99,9 %), va Shahrixon (92,7 %) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda Shahrixon (100,0 %), Oltinko'l (100,0 %), Marxamat (100,0 %) va Bo`z (100,0 %) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Andijon (45,0 %), Asaka (6,5%), Shahrixon (6,2 %), Andijon (5,8 %) va Baliqchi (4,7 %), Qo`rg'ontepa (4,4 %) tumanlari tashkil etadi.

2018 yilning yanvar – sentabr oylarida kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 3543,8 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 21,6 %) yoki 2017 yilning yanvar– iyun oylariga nisbatan o`shish sur`ati 105,3 % ni tashkil qildi;

– 1704,2 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 55,8 % ni) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar– sentabr oylariga nisbatan o`shish sur`ati 128,5 % ni tashkil qildi;


– 1766,3 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 96,5 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar– sentabr oylariga nisbatan o`shish sur`ati 105,6 % ni tashkil qildi;

– 4150,8 mlrd. so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (xizmatlar hajmining 72,4 %), 2017yilning yanvar–sentabr oylariga nisbatan o`shish sur`ati 110,1 % ni tashkil qildi;

– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 90,0 % yoki 6630,9 mlrd. so`mi (o`shish sur`ati 102,0 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;


– 179,4 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 71,3 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 165,2 mln. AQSh dollariga yoki 108,6 % ga ko`p;

Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



■ 2017 yil yanvar-sentyabr ■ 2018 yil yanvar-sentyabr

2018 yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati




Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Andijon shahri (764,9 mlrd.so'm), Shaxrihon tuman (382,7 mlrd.so'm), Asaka tuman (239,0 mlrd.so'm), Xo'jaobod tumanida (237,2 mlrd.so'm) va Andijon tuman (321,3 mlrd.so'm) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi.

Ulug'nor (39,5 mlrd.so'm), Bo'z (46,2 mlrd.so'm), Xonobod (91,1 mlrd.so'm) va Buloqbo'shi (111,4 mlrd.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




2018 yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Andijon shahri (1520,7 mlrd.so'm), Shaxrihon (1109,3 mlrd.so'm), Asaka (756,1 mlrd.so'm), Qo'rg'ontepa (605 mlrd.so'm) va Paxtaobod (320 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2018 yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur`ati



Hududlar bo`yicha ko`proq xizmatlar hajmi Andijon shahri (1143,1mlrd.so`m), Asaka(358,8mlrd.so`m), Shaxrihon (342,8 mlrd.so`m),


Andijon (284,1 mlrd.so'm) va Izboskan (256,7 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018 yil III - chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 70 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili sanoatda respondentlarning 33.3 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 27.8 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda qurilishda va savdo sohasida – 33.3 % va 23.8 %, xizmatlar sohasida – 13.3 % va 86.7% qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 33.3 % va 66.7 %, tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar qurilishda – 11.1 %, savdoda – 4.8 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida –0.0%, xizmatlarda – 0.0% sanoatda–38.9%, ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil III-chorak uchun



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 100 % sanoat korxonalari, 80.9 % – savdo, 93.3 % – xizmatlar, 83.3 % – qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va 88.9 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.